

## KETMA-KET TARJIMADA NUTQNI QAYD ETISHDA TARJIMA SEMATOGRAFIYASINING AHAMIYATI

**Nurmatova Durdona Shuxrat qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universitati magistranti

E-mail: [Durdona97531@gmail.com](mailto:Durdona97531@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Samarali muloqotni ta'minlash uchun til omili juda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun real vaqt muhitida ma'lumotni tarjima qilib bera oluvchi mutahassislar – og'zaki tarjimonlarga talab oshmoqda. Ketma-ket tarjima og'zaki tarjimaning eng oldin paydo bo'lgan ko'rinishidir. Og'zaki nutqni ketma-ket tarjima qilish uchun esa tarjimon uni to'g'ri va tez qayd etish mahoratini egaalagan bo'lishi lozim. Tarjimada nutqni tezkor qayd etish uchun tarjima semantografiyasi vositasidan foydalaniladi.

**Kalit so'zlar:** ketma-ket tarjima, tarjima semantografiyasi, tezkor tarjimon yozuvi, universal tarjimon yozuvi, nutqni qayd etish

### ABSTRACT

The language factor is very important for effective communication. That is why the demand for specialists - interpreters who can render the information in a real time environment is increasing. Consecutive interpretation is the earliest form of interpretation. In order to interpret the speech consecutively, the interpreter must acquire the skill of recording it correctly and quickly. The semantography is a tool used for rapid recording of oral speech in interpreting also known as note-taking.

**Key words:** consecutive interpreting, note-taking, semantography, oral speech. note-taking technique.

### KIRISH

Ketma-ket tarjima og'zaki tarjimaning asosiy turlaridan biridir. Bunda o'rtacha 2-7 daqiqa davomiylikdagi nutqni notiq so'zlashdan to'xtagan zahoti chet tiliga og'irish lozim. 2-7 daqiqalik nutqni yoddan tarjima qilish mushkul albatta, ayniqsa tarjimani yuqori sifatda bajarish maqsad qilinganda. Notiq nutqi davom etar ekan tarjimonda uni qayd etib olish, bu orqali o'z hotirasiga va tarjima jarayoniga yengillik yaratish imkoni mavjud. Og'zaki nutqni qayd etish maqsadida tarjima semantografiyasi tushunchasidan foydalaniladi.

Bu tarjima semantografiyasi (sema-ma'no, grafo-yozuv) yoki tezkor tarjimon yozuvi nomlari bilan ataluvchi qisqartirib tez qayd etish texnikasidir. Tarjimada amaliy

tajribaga asoslanib, bu belgilashlar odatda qayd qilish texnikasi ya'ni mahorati deb ta'riflanadi va tegishli maxsus adabiyotlarda ular ko'pincha tildan alohida mustaqil vosita sifatida qaraladi. Semantografik yozuv qisqartmalar, abbreviaturalarga asoslanadi. Ular umumiy va shaxsiy bo'ladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tarjima sematografiyasi XX asrning 30-yillari ketma-ket tarjima eng ko'p e'tiborga tushgan yillari paydo bo'lgan. Lekin uning tamoyillari ilmiy asoslanib, ishlab chiqilishi 50-yillarga to'g'ri keldi. Bu vazifa Shvetsariyada J.F.Rozan tomonidan bajarildi. "Ketma-ket tarjimada qaydlar yozish" deb nomlangan asari hozirgi kungacha barcha tillarda tarjima sematografiyasi yaratish uchun andoza bo'lib hizmat qiladi. Undan keyin bu sohada A.Van Hof izlanishlar olib bordi. Rus tilida bu vazifani R.Minyar-Beloruhev (1969) o'zining "Posobiye po ustnomu perevodu" asarida bajardi. Undan so'ng bu sohaga A.Chujakin, E.Alikinalar o'z hissalarini qo'shdilar.

Ushbu mahoratning ilk batafsil tavsifi Jan Erber tomonidan 1952-yilda Jenevada chop etilgan "Tarjimonlar qo'llanmasi" asarida berilgan. Erber Millatlar Ligasi tarjimonlarining tajribasiga tayangan holda semantagrafiyadan foydalanish to'g'risida asosiy ma'lumotlar keltirib o'tgan. Keyinchalik yozilgan asarlarda tarjima sematografiyasi batafsil ko'rib chiqildi: Jan-Frank Rozan "Sinxron tarjimada yozuvlar tizimi" (1956) va Andrew Gilliesning "Sinxron tarjimada yozuv. Qisqa kurs"(2005) kitobi, bundan tashqari tarjima yozuvi masalalari yoritib berilgan Rurik Konstantinovich Minyar-Beloruhevning "Sinxron tarjimada yozuv"(1969) hamda mashxur "Universal tarjima semantografiyasi" atamasining muallifi Andrey Pavlovich Chujakinning asarlari tarjima semantografiyasining ilmiy poydevorini tashkil etdi.

### **NATIJALAR**

Semantografiya tezkor hotiraga yordam beradi va nutqning mazmunini, asosiy fikrni ifodalashi kerak. U gapni so'zma-so'z yozib olmaydi, bu stenografiyaning vazifasi hisoblanadi. Sematografiyaning foydali jihati shundaki, og'zaki nutqda albatta uchraydigan ortiqcha hajmni yo'qotadi. Unda alohida so'z yoki so'z birikmalariga e'tibor qaratilmaydi. Gapning mazmuni qisqa yozib olinadi. Og'zaki tarjima qilganda u kerakli ma'lumotlar bilan kengaytirilib, to'ldiriladi.

Psixolingvistikaning og'zaki tarjima jarayoniga taaluqli nazariyalaridan biri "kiritish mutloq – chiqarish ixtiyoriy" dir. Uning mazmuni shuki, inson miyasi o'z sezgi a'zolari bilan qabul qilgan axborotni barchasini yodda saqlab qoladi, ammo uni qancha qismidan va qanday foydalana olishi o'ziga bog'liq. Tarjima sematografiyasining eng asosiy vazifasi mana shu hotirada tiklash jarayonini iloji boricha tez, samarali va aniqlik bilan amalga oshirishdir. Bu texnikadan nafaqat ketma-ket tarjimon balki jurnalist, kotiba, talaba, notiq, qo'yingki barcha katta hajmdagi nutq

va hujjatlar bilan ishlovchilar foydalansa bo‘ladi. Aynan shu sababli ham A.Chujakin bu yozuvni universal ya’ni ommabop tarjimon yozuvi deb ataydi. Xulosa qilish mumkinki, semantografik yozuv har bir mutaxassis tarjimon egallashi lozim bo‘lgan malakadir.

Shu bilan birga Andrew Gillies ning fikriga ko‘ra tarjima sematografik yozuvi butunlay individual tushuncha emas, uning ham barcha uchun umumiy tamoyil va me’zonlari bor. Ularni o‘zlashtirgandan so‘ng shaxsiy o‘zgartirish yoki yangiliklar kiritish lozim.

### **XULOSA**

Tarjima sematografiyasi ancha shaxsiy tushuncha. Undan foydalanish, qay ko‘rinishda va qachon foydalanish tarjimonning o‘z ixtiyorida. Yozuv tizimi bir, ammo yozuvlarimiz farqli bo‘lgani kabi har bir tarjimonning sematografik yozuvi individualdir. Uni ba’zan boshqa tarjimon ham tushunmasligi mumkin. U yozuvga ikki marta murojaat qilinadi: yozuv yozilganda va uni tarjima qilganda. Ikkisini ham uni yozgan tarjimon amalga oshiradi. Demak, uni o‘zidan boshqa odam tushunmasligi ajablanarli holat emas.

Tarjima sematografiyasi tarjima jarayoni samaradorligini oshiruvchi yordamchi vosita. Undan foydalanish tarjimaning yuqori sifati kafolati emas, qanday foydalanish har kimning o‘zi ixtiyorida.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Alikina, E.B.(2011) Переводческая семантография.
2. Chujakin, A.P.(2003) Мир перевода-7: Прикладная теория устного перевода и переводческой скорописи.
3. Chujakin, A.P., Spirina, S.G.(2007) Основы последовательного перевода и переводческой скорописи.
4. Gillies, Andrew (2005) Note-Taking in Consecutive Interpreting - A Short Course.
5. Herbert, Jean (1952)The Interpreter’s Handbook.
6. Minyar-Beloruhev, R.K.(2005) Записи в последовательном переводе.
7. Muminov Amanjan (2020)A Guide to consecutive translation. Ketma-ket tarjima Последовательный перевод: o‘quv qo‘llanma
8. Rozan, Jean-Franc (1956) Note-Taking in Consecutive Interpreting.